

# SHARTNOMAVIY TARIFLARNI QO'LLAB SOATBAY XAQ TO'LASH

## SHARTLARI BILAN YO'LOVCHI TRANSPORTI AJRATISHGA

### SHARTNOMA №

Muborak shaxri

«Kamolbek Invest» MCHJ(ustav asosida ish ko'rsatadigan tashkilot nomi)

keyingi o'rinda «Xizmat ko'rsatuvchi» deb ataladi. Boshqaruvi rahbari A. Gafurov orqali bir tomon va Ustav asosida ish ko'rsatadigan **“Muborak issiqlik elektr markazi” AJ** bosh direktori K. I. Xayrullayev orqali ikkinchi tomon, keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb ataladi.

Mazkur shartnomanini quyidagilar haqida tuzdilar:

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI.

1 Tomonlarning majburiyatları

1,1 «Xizmat ko'rsatuvchi» yo'lovchiga avtotransport ajratadi. «Buyurtmachi» esa ajratilgan yo'lovchi avtotransportidan maqsadga muvofiq foydalanib ushbu shartnomaga ilova qilingan kal'kulyasiyada ko'rsatilgan tariflarni qo'llab soatbay asosida haq to'laydi.

1,2 Mazkur shartnomaning taxminiy bir yillik umumiyligi bahosi **98 172 000(to'qson sakkiz million bir yuz yetmish ikki ming) so'm**

1,3 Mazkur shartnoma bo'yicha to'lovlari bir kunlik avtotransport vositasining xaqiqatda ishlagan km hisobida ishlab chiqarilgan kal'kulyasiya asosida amalga oshiriladi. Kal'kulyasiya shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. »Buyurtmachi» tomonidan tulovlar bir ish kuniga avtotransport ushbu shartnomada belgilangan xaqiqatda ishlagan ish kuni hisobidan amalga oshiriladi. Avtotransport vositasi xizmat ko'rsatuvchining aybi bilan ishlamay qolsa, ishlamay qolgan kun uchun to'lov amalga oshirilmaydi. Bu haqida buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga berilgan o'z ma'lumotnomasiga qayd ettiriladi. Agar avtotransport vositasi bir oy davomida «Buyurtmachi»ning buyutmasi bo'yicha ishga chiqmasa, chiqmagan ish kunlari uchun to'lov amalga oshirilmaydi.

1,4 «Buyurtmachi» xizmat ko'rsatuvchining avtotransport vositalaridan bayram va dam olish kunlari qisqartirilgan va haqiqatdan foydalanilgan vaqt hamda bosib o'tilgan masofa uchun xizmat xaqi to'lovlari amalga oshiradi.

#### 2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

2,1 «Avtokorxona» o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

«Buyurtmachi» bilan «Kamolbek Invest» Ma'suliati Cheklangan Jamiyati kelishilgan Muborak IEM-Qoraqum qishlog'i- Muborak IEM yo'nalishi boyicha haftasiga 5(besh) kun davomida ishchilarni tashish xizmatidan foydalanish ISUZU NP rusumidagi ta texnik soz avtobus ajratish. «Xizmat ko'rsatuvchi» ajratilgan avtotransport vositasi xaydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlaydi. Dam olish va bayram kunlarida avtomobil «Buyurtmachi» buyutmasi bo'yicha qonunda belgilangan xaq to'langan holda ajratadi. Biriktirilgan avtomobil texnik nosoz bo'lган holda o'z vaqtida uni almashtirish zaruriyat tug'ilganda avtomobil xaydovchisi bilan xavfsizlik texnikasi va yo'lida xarakatlanish xavfsizligini ta'minlaydi. «Buyurtmachi»ning avtotransport ishi uchun javobgar bo'lgan mansabdar shaxslarning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish xaqida qo'shimcha yo'riqnomalar o'tkazadi. «Buyurtmachi» buyutmasi bo'yicha haydovchilarning biriktirilgan avtotransporti bilan xizmat safariga yuboradi.

2,2 Avtotransportdan kelishilgan ish tartibiga muvofik maksadli foydalanish xaydovchiga «Buyurtmachi» ichki mexnat tartib qoidalariiga muvofiq tushlik uchun tanaffusga vaqt ajratiladi. Xaydovchilar avtransport bilan xizmat

safariga (bolalar oromgohi,sayohat va x.k.lar) borgan hollarda avtotransportni qo'riqlashni o'z zimma yuklanadi.

### **3. TOMONLARNING XUQUQLARI**

3,1 «Xizmat ko'rsatuvchi» quyidagi xuquqlarga ega:

Xisob-kitob varag'iga «Buyurtmachi» bilan kelishilgan shartnomaviy tariflar bo'yicha oldindan to'lanishi lozim bo'lган bir oylik tarifning 15% lik to'lovi tushmaguncha avtotransport ajratmaslik, avtomobillardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlik yoki shaxsiy maqsadlarda foydalanganlik natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab etish. SHartnomaviy tariflarga YOMM, extiyot qismlar va boshqa moddiy resurslar qimmatlashishi bilan bog'liq o'zgarishlar kiritish, ushbu xaqida «Buyurtmachi»ni o'z vaqtida 15 (un besh) kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

3,3 «Buyurtmachi» quyidagi xuquqlarga ega: Agarda xaydovchi berilgan topshiriqlarni bajarmasa, ish joyida sababsiz bo'lmasa Bajaruvchiga yozma ravishda bildirgi berish. Avtomobilarni texnik soz va sanitariya me'yorlari talablariga muvofiq xolatda va YXX qoida va talablariga muvofiq xolatda o'z vaqtida etkazib berilishini talab etish.

### **4. XISOB-KITOBLAR.**

4,1 «Xizmat ko'rsatuvchi» va «Buyurtmachi» o'rtasida avtotransport xizmatlari uchun xisob-kitoblar, mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 3(uch)kun davomida shartnomaviy summasining yo'lovchi avtotransporti uchun kamida 15% miqdorida oldindan xaq to'lash orqali amalga oshiriladi.

4,2 ISUZU NP rusumili avtomobildan foydalanganlik uchun shartnomaviy tarifga muvofiq 1(bir) ish kunida 8 soatga va shartnomaga ilova qilingan kalkulyasiyaga asosan bosib o'tilgan masofaga qarab xaq to'lanadi.

4,3 SHartnomaviy tariflar shuningdek belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ma'sul shaxs imzosi va «Buyurtmachi» bergen ma'lumot o'zaro xisob-kitoblar uchun asos bo'lib hisoblanadi va to'lovnomalar amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» ushbu shartnomaning 4,3 bandida qayd etilgan ma'lumotlarni xizmat ko'rsatuvchi tomonidan to'dirilgan yo'l varaqasi asosida beradi.

4,4 YOMM, ehtiyyot qismlar, moddiy va mexnat resurslari qiymati oshishi tufayli avtoxizmatlar qiymati o'zgarganda «Xizmat ko'rsatuvchi» yozma ravishda xarajatlar ko'payganligini asoslaydi va 15(un besh) kun davomida «Xizmat ko'rsatuvchi»ga avtoxizmatlar farqini aniqlaydi.

### **5.FORS-MAJOR**

Fors-major vaziyatlarni suv toshqini, zilzila, yong'in va boshqa Hukumat Qarorlari , Uzbekiston Respublikasi Prizedenti farmonlari va xokazolar, ro'y bergen hollarda tomonlar majburiyatlarini qisman yoki to'la bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major vaziyatlar vujudga kelgan holda tomonlar shartnoma tuzgan ikkinchi tomonni 3(uch) kun davomida yozma ravishda xabardor kilish kerak.

### **6. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH**

Mazkur shartnomanini bajarish chog'ida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolar muzokoralar orqali hal etiladi, bitimga kelishilmaganda xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

## 7. SHARTNOMANING AMAL KILISHI

1 Mazkur shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va 2022 yil \_\_\_ yanvardan 2022 yil 31 dekabrgacha mal kiladi.

7,2 SHartnoma 2 (ikki) nusxadan iborat bulib bir xil yuridik kuchga ega

7,3 SHartnoma bir oy oldin yozma tarzda ogohlantirilgan xolda tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkun.

## 8. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

### Хизмат кўрсатувчи:

“KAMOLBEK INVEST” МЧЖ  
Қашқадарё вилояти Муборак тумани

БАНК:АТБ “O’z SQB” Muborak filiali  
Х\Р: 20208000304629107001  
МФО: 00186  
ИНН: 300486448  
Тел. (97) 290-01-00

МЧЖ раҳбари А. Гафуров

### БУЮОРТМАЧИ:

Muborak Issiqlik Elektr markazi AJ Муборак тумани, Саноат маскани-7

